

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI



«QISHLOQ XO'JALIGI MUHANDISLIGI ASOSLARI»
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	800 000	Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya
Ta'lim sohasi:	810 000	Qishloq xo'jaligi
Ta'lim yo'nalishlari:	60810100	Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish

Fan/modul kodi QXMA 1105	O'quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS-kreditlar 5
Fan/modul kodi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 3
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlar (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Qishloq xo'jaligi muhandislik asoslari	75 (30 m / 45 a) I-semestr	75 I-semestr	150
<p>I. Fanning maqsadi va vazifalari:</p> <p>Fanning maqsadi – ta'lim muassasalarida joriy etilgan kredit-modul tizimi haqida, ushbu ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabarga o'zlariga tanlagan yo'nalish bo'yicha dastlabki va umumiy tushunchalar asosida ularning yetuk va yuqori malakali mutaxassis bo'lishlarini hamda olingan bilimlari asosida o'qish va ilmiy izlanishlarini davom ettirishlarini ta'minlashdir.</p> <p>Fanning vazifasi – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, ta'lim jarayoni kredit modul tizimi asosida tashkil etish hamda kredit-modul tizimining tamoyillari, o'quv jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish, talabalarining mustaqil ta'limini tashkil qilish, talabalar bilimini baholash, yangi strukturaviy birlik – Registrator ofisi faoliyati, yangi pedagogik faoliyat turlari (edvayzer, lektor va tyutor)ning mazmun-mohiyatini ochib berishni va qolaversa, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ushbu faning tutgan o'rni, fanning ta'lim va milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o'rni hamda fan-texnika taraqqiyotining mohiyati va ahamiyatini o'rganishdir.</p> <p>Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yilgan talablar « Qishloq xo'jaligi muhandislik asoslari» o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ta'lim to'g'risidagi qonunlar, oliy ta'lim muassasalari turlari, o'quv jarayonlari, ilmiy va ilmiy-metodik ishlar, qishloq xo'jaligi mashinalari tasnifi, ularni qo'llash va foydalanish istiqbollari to'g'risidagi ma'lumotlarni bilishi kerak; - oliy ta'lim olish mobaynida o'qitiladigan fanlarning ketma-ketligi va bit-biri bilan uzviy bog'liqligini bilishi va ulardan foydalanish; - talaba o'quv rejasidagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematik va tabiiy-ilmiy fanlar, umum kasbiy va ixtisoslik fanlarining uzviy bog'liqligi haqida tushunchaga ega bo'lishi, oliy o'quv yurti, kafedra va laboratoriyalarda olib borilayotgan o'quv – metodik hamda ilmiy ishlaridan xabardor bo'lishi, fanlarni o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak; - qishloq xo'jaligi mashinalaridan foydalanish, ularning jixozlanishi va qarovlari to'g'risidagi bilimlarni umumlashtirish malakalariga ega bo'lish kerak. 			

Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-semestr

1-mavzu. Qishloq xo'jaligi muhandislik asoslari fanining maqsadi.

Qishloq xo'jaligi muhandislik asoslari fanining maqsadi va vazifalari.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda agromuhandislik faoliyatining o'rni va ahamiyati.

2-mavzu. Dunyo mamlakatlari oliy ta'lim tuzilmasi va kredit ta'lim tizimi

Dunyo mamlakatlari oliy ta'limi tuzilmasi va kredit ta'lim tizimi. Kredit-modul tizimining O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limda mavjud elementlari.

Mustaqil ta'limning ustuvorligi. Talabaga yo'naltirilganlik. Akademik almashinuvcchanlik. Modullilik. Baholashning shaffofligi.

3-mavzu. Kredit modul tizimining imkoniyatlari va muammolari

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar. O'quv rejas. Nazariy va amaliy ta'lim. Umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining qisqacha mazmuni. Talaba tanlovi fanlari. O'quv dasturlari. Mutaxassis shakllanishida ijtimoiy-gumanitar fanlarining roli. Tabiatni muxofaza qilish va tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish. Talabalarning mustaqil ishi va uni tashkil qilish.

4-mavzu. Kredit – modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish

Kredit-modul tizimining imkoniyatlari va muammolari. Kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish. Bu jarayonlarni monitoring qilish. Talaba tanlovi va shaxsiy o'quv trayektoriyasi. O'quv jarayoni me'yoriy ish hujjatlari.

5-mavzu. Talaba tanlovi va shaxsiy o'quv traektoriyasi

Ta'lim yo'nalishi tarmog'ini tanlash. Fanlar katologidan tanlov fanini tanlash. Fan mashg'uloti o'qituvchisini tanlash. Dars kunini tanlash. O'quv auditoriyasini (o'quv binosini) tanlash.

6-mavzu. O'quv jarayoni me'yoriy ish hujjatlari

Qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi. Qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirish ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash darajasiga qo'yilgan talablar. Ta'lim dasturining tarkibi va mazmuni va uni amalga oshirish. Bakalavr tayyorlash sifatini nazorat qilish.

7-mavzu. Hemis tizimi imkoniyatlari

HEMIS axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga ma'muriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etish. Hemis tizimida talaba profili funksiyalari: Fan resurslaridan foydalanish. Shartnomalar olish. Fan bo'yicha topshiriqlarni bajarish. Oraliq va Yakuniy topshirish hamda olingan baholarni ko'rib borish.

8-mavzu. Qishloq xo'jaligi muhandislik asoslari fanining rivojlanish istiqbollari

Qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirish darajasini rivojlantirishda agromuhandisning vazifalari. 60810100 ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyat ob'ektlari va turlari. Qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirish darajasini rivojlantirishda agromuhandisning vazifalari.

9-mavzu. O'zbekiston qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimi va rivojlanish istiqbollari

Respublika qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining bozor islohatlari talablariga mos rivojlanishi. Qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirish masalalarni yechishda injener kadrlarning o'rni va ularga qo'yiladigan talablar.

10-mavzu. Jahonda qishloq xo'jaligi mexanizatsiyalashtirishi haqida umumiy ma'lumotlar

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar qishloq xo'jaligida texnologiyalar va texnika vositalari. Respublikamiz iqlim-tuproq sharoitiga mos qishloq xo'jaligi texnologiyalari va texnikalarining yaratilishi.

12-mavzu. Respublikaning mustaqillik yillarida qishloq xo'jalik texnikalari va ularning rivojlanish istiqbollari

Rivojlangan xorijiy davlatlar qishloq xo'jalik texnikalarini respublikamizga kirib kelishi va kelajagi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarishning istiqbollari. Qishloq xo'jaligida istiqbolli texnologiyalar haqida

13-mavzu. Qishloq xo'jaligi texnikasining yaratilishi va ishlab chiqarishga joriy etish

Qishloq xo'jalik texnikasining yaratilish bosqichlari. Yaratilgan texnikani ishlab chiqarishga joriy etish bosqichlari.

14-mavzu. Qishloq xo'jaligi texnikalari tizimi va ularni joydagi faoliyati

Qishloq xo'jaligi texnikalarini tizimlanishi. Joylarda qishloq xo'jaligi texnikalarining faoliyati va nazorati.

15-mavzu. Qishloq xo'jalik texnikasidan samarali foydalanish

Mehnat unumdorligi va agregatning ish unumi. Smena vaqtidan foydalanish koeffitsienti va uni oshirish yo'llari. Bajartilgan ish uchun yoqilg'i va moylash materiallari sarfi.

Amaliyot ishlarini ro'yxati

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada mashg'ulotlarni tashkil etishda talabalarni guruhlariga bo'lib, ekspertli tahlil qilish va baholash, munozaralar yuritish, aqliy hujum, muammoli vaziyatlarni hal qilish, muayyan mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va tahlil qilish, mahsulot jarayonlarning ko'rsatkichlari aniqlash va baholash usullarini o'rganish, sifat boshqaruvi va menejment tizimi hujjatlarini va tizimlarini tekshirish, natijalarini rasmiylashtirishga e'tibor qaratiladi.

<p>Amaliy mashg'ulot bo'yicha quyidagi mavzular tavsiya etiladi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qishloq xo'jaligi muhandisligi asoslari bo'yicha tushunchalar 2. Davlat ta'lim standartlari to'g'risida tushuncha 3. Kredit-modul tizimining ilk tarixi 4. Kredit-modul tizimini joriy qilish 5. HEMIS tizimi imkoniyatlari. 6. Moodle LMS tizimi to'g'risida tushuncha 7. Respublikamiz OTM larining kredit tizimi tajribalarini o'rganish 8. Texnika xavfsizligi qoidalar va ularga rioya qilish 9. Traktorlarning rivojlanish tarixi, ularning vazifasi, tuzilishi va ish jarayoni 10. Tabiatdagi mavjud kuchlar va ularni qishloq xo'jaligi texnikalarida qo'llash 11. Jahon qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirishning dastlabki davridagi qurollar va mashinalarni o'rganish 12. Oddiy uy ro'zg'or va dehqonchilik qurollarining yaratilishida fizika va mexanika qonuniyatlarining qo'llanishi 13. Ishlab chiqarish jarayonlari, asosiy tushunchalar va ta'rifi 14. O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarilgan texnika va texnologiyalarni o'rganish 15. Qishloq xo'jaligini vositalari bilan ta'minlashning davlat tomonidan qo'llab - quvvatlanishi 16. Yuqori quvvatli va umumli qishloq xo'jalik texnikalari bilan tanishuv 17. Dominator – 130 kombaynining konstruktiviyasi tahlili va texnologik jihatlari 18. New Xolland TS-5060 kombaynining konstruktiviyasi tahlili va texnologik jihatlari 19. Paxta terish masinalarini konstruktiviyasi tahlili va texnologik jihatlari 20. Paxta terish masinalarini ishga tayyortash 21. Mexanik va gidravlik yuritmalarning qishloq xo'jalik texnikalarida qo'llanishi 22. Mexanik va gidravlik yuritmalarning qishloq xo'jalik texnikalarida qo'llanishi 23. Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan texnikalaridan samarali foydalanish <p>IV. Mustaqlil topshiriqni tashkil etish va uning tarkibi</p> <p>Mustaqil ta'lim topshiriqlari quyidagi shakllarda tashkil etiladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - fan va texnikani eng so'ngi yutuqlarini internet tizimi va davriy nashrlardan aniqlab o'rganib tezislar shaklida rasmiylashtirish va bu xaqida kafedrada yoki seminarlarda namoish qilish; - ma'ruza darslarida muayyan mavzu bo'yicha tinglangan ma'lumotlarni tarqatim materiallardan foydalanib, qo'shimcha materiallarni o'zlashtirib mustaqil taqdimotlarni tayyorlash; - o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quv xonasida mavjud agregat va uzellarni konstruktiviyasini maket nusxalarini tayyorlash;
--

<ul style="list-style-type: none"> - faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalanilgan o'quv mashg'uloti dastur tayyorlash; - tegishli mavzuga ko'ra kiritilgan yangiliklar yuzasidan ishlanma yoki loyih rasmiylashtirish. <p>Mustaqil topshiriqlar uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ta'lim sohasiga oid qonun, qonunosti hujjatlari va ularning mazmuni o'rganish. 2. Oliy ta'lim muassasasining tuzilmasini o'rganish. 3. Kredit-modul tizimida talabning mustaqil ishlashini o'rganish. 4. Mutaxassislik fanlarini o'zlashtirishda adabiyotlardan foydalanishni o'rganish. 5. Elektron kutubxonalaridan foydalanishni o'rganish. 6. Hemis fan resurslaridan foydalanishni o'rganish. 7. Traktorlarning rivojlanish tarixi, ularning vazifasi, tuzilishi va ish jarayoni 8. O'zbekiston qishloq xo'jaligi uchun ishlab chiqarilgan texnika va texnologiyalarni o'rganish. 9. Dominator – 130, New Xolland TS-5060 kombaynlarining konstruktiviyasi tahlili va texnologik jihatlari o'rganish 10. Qishloq xo'jaligida ishlatiladigan texnikalaridan samarali foydalanishni o'rganish <p>V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar qo'yiladi. Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - xorijiy oliy ta'lim tuzilmasi, O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tuzilmasining kredit-modul tizimiga mos jihatlari, xorijdagi kredit ta'lim tizimini; - O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimidagi kredit-modul tizimining tamoyillarini; - kredit-modul tizimining afzallik va muammoli jihatlari, o'quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etishni; - talabning mustaqil ish turlarini, o'qituvchi rahbarligidagi talabning mustaqil ishini, talabning mustaqil ta'limini, me'yorlangan va me'yorlanmagan mustaqil ish turlarini, talabning mustaqil ishini masofaviy ta'lim tizimida tashkil qilishni, talabning mustaqil ishini baholashni hamda mustaqil ishning uslubiy ta'minoti; - kredit-modul tizimidagi akademik faoliyat turlarini, lektor, tyutor, edvayzer va boshqa sub'ektlarning vazifalarini, talabning mustaqil ishi sifatini nazorat qilish bo'yicha komissiyalar faoliyatini; <p>“Qishloq xo'jaligi muhandislik asoslari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - kredit-modul tizimi tamoyillarini tadbiiq qilish; - an'anaviy ta'lim tizimini kredit-modul tizimiga moslashtirish;

- kredit-modul tizimida o'quv jarayonini rejalashtirish;
 - kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish;
 - Hemis axborot tizimidan foydalanish;
- kredit-modul tizimida to'liq ishlay olish va Hemis axborot tizimidan foydalanish kabi kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruzalar; real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish;
- jarayonli – yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni echish;
- so'rov o'tkazish.

Mazkur fan bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra subatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

VII. Kreditni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish.

DIQQAT: Topshiriqlar, nazorat savollari dedlayn (qa'tiy belgilangan vaqt) tarzda platformaga joylashtiriladi va talabalar tomonidan bajarilib muddatida platformaga joylashtiriladi. Muddati tugagandan so'ng javoblar qabul qilinmaydi va akademik qarzdor bo'lib hisoblanadi.

Fanga ajratilgan umumiy 60 auditoriya soatning 25% dan ortig'i (15 soatdan ko'p)ni sababsiz qoldirgan talaba fandan chetlashtiriladi va nazorat turlariga kiritilmaydi.

Asosiy adabiyotlar

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: “O'zbekiston”, – 2017.– 102 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy ta'limdagi ustuvor vazifalarga bag'ishlangan video selektor yig'ilishi bayoni. 2021 yil 16-iyun. (<https://president.uz/uz/lists/view/4424>)
4. Shoumarova M., Abdillayev T.A. Qishloq xo'jalik mashinalari. Toshkent: – Fan, 2010. – 367 B. (darslik).
5. Mamatov F.M. Qishloq xo'jalik mashinalari. Toshkent: Fan, – 2004.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Ta'lim to'g'risida». Toshkent, 2020 y., 23 sentyabr. №O'RQ-637.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-5847-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-sonli qarori;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.06.2018 dagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda 824-son qarori "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi Nizom.
8. Malaka talablari: 60810100- Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish. Usmonov B.Sh., Xabibullaev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: "Tafakkur" nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

	<p style="text-align: center;">Axborot manba'lari</p> <p>window.edu.ru/resource/215/80215 www.twirpx.com/file/466324/ https://arm.tdpu.s'nf.uz/kitoblar/fayl_682_20210430.pdf https://bilimlar.uz/darsliklar/</p>
	<p>Namangan muhandislik-qurilish instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</p>
	<p>Fan/modul uchun mas'ul: Sh.Akbarov-NamMQI "QXM" kafedrası dotsenti, PhD.</p>
	<p>Taqrizchi: M.Boydadeyev - Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</p>